

MAKTABGACHA YOSHDAGI NUTQ NUQSONLI BOLALAR LUG'AT BOYLIGINI O'YIN FAOLIYATI ORQALI RIVOJLANTIRISH.

Barno Xodjiakbarovna Xusniddinova

Nizomiy nomidagi O'MPU Logopediya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqolada bolalar nutqining grammatik tuzilishi, morfologik va sintaktik tizimni o'zlashtirish jarayoni, so'z yasash mexanizmlari ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan. Maqolada alalik bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish, muloqotning bosqichlari, kommunikativ va umumlashtiruvchi nutq funksiyalari, oliy psixik jarayonlar shakllanishidagi nutqning o'rni ilmiy asosda izohlanadi. Maktabgacha yoshdagi alalik bolalar lug'atining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularning nutqiy rivojlanishiga yo'naltirilgan korreksion mashg'ulotlar tizimini takomillashtirish hamda logopedik-psixologik amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: nutq rivoji, lug'at boyligi, alaliya, muloqot bosqichlari, logopedik o'yinlar, bog'langan nutq, grammatik tuzilma, so'z yasash tizimi, maktabgacha yosh, pedagogik korreksiya, nutq buzilishlari.

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, barcha davrlarda tarbiya masalasi, pedagogik faoliyatga shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida e'tibor qaratib kelingan.

Shu bois ham tarixda o'zining boy ma'naviy meroslari bilan munosib o'rin olgan mutaffakkirlarimiz insonning ma'naviy barkamolligi har qanday jamiyatning rivojini, takomillashuvini belgilab beradigan omil, deb hisoblaganlar va bu boradagi ishlarga alohida e'tibor qaratganlar.

Zero, milliy pedagogikamiz asoschilaridan A.Avloniy ta'kidlaganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir"⁴⁰.

Ma'lumki, nutq inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Avlodlar ajdodlari tomonidan qoldirilgan boy ma'naviy merosni nutq orqali egallab, o'zlari uchun munosib tarzda hayot kechirish, takomillashtirib, kelgusi avlodlariga yetkazib borish imkoniga ega bo'ladilar. Shu sababli ham har qanday jamiyat, har qanday davlatda ta'lim-tarbiya oluvchilarning nutqiy tarbiyasiga alohida ahamiyat berib kelinadi.

Ayniqsa, Sharq mamlakatlari, xususan Vatanimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, boy ma'naviy manbalarda bola tarbiyasi, unda nutqning o'rni, bu borada bola tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi hamda e'tibor berilishi lozim bo'lgan masalalarga o'rinli ahamiyat berib kelingan.

⁴⁰ . Абдулла Авлоний "Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ". – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 40 б.



Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi alloma va olimlarimizning ma'naviy meroslari bunga yorqin misol bo'la oladi.

V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, YE.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlari bolalarning ona tili leksikasini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos jihatlarini o'rganish masalasiga bag'ishlangan. Bolalarning lug'atni o'zlashtirib olishlarining ikki jihati aniqlangan: lug'atni atrof-olamni bilish bilan birgalikda rivojlantirish va til birligi sifatida so'zlarni o'zlashtirish; predmetli aloqalar mantig'i bo'yicha ham va ayni paytda til mantig'i bo'yicha ham so'z ustida ishlash zarurligi isbotlangan.

Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik jihatlarini shakllantirish (F.A. Soxin, A.V. Zaxarova, O.I. Solovyeva, V.I. Yashenko va boshq.), shuningdek ona tilining so'z yasash tizimini o'zlashtirishning o'ziga xos jihatlarini (A.G. Tambovseva, D.A. Kostandyan) aniqlab berdi.

Muloqot vositalari orasida ekspertiv mimika, predmet faoliyati va nutqiy muloqotlarga ajratiladi. Bola hayotining birinchi yillarida qachonki, u kattalar bilan faoliyatli vositalar yordamida muloqotga kirsam buni biz doveralgacha deb ataymiz. Aynan mana shu darvda bola inson tovushini, fizikaviy obyektlar tovushlari bilan taqqoslaydi, kuchlari bir-biriga tegishli, uzoqligi, balandligi va tarkibini ajratadilar.

Nutq buzilishi, nutqiy muammolarning cheklanmaganligi bola shaxsining shaklanishiga salbiy ta'sir ko'ratishi, uning xarakteriga salbiy fazilatlarini rivojlanishi uchun yo'l ochib berishi mumkin. Nutqning mexanizmi ishning faoliyatiga bog'liq. Miya faoliyatining har bir bo'limi o'ziga xos nutq faoliyatining xarakter boyligiga ega. Klinik tajriba shuni ko'rsatadiki, bosh miya po'stlog'ining salgina shikastlanish ham nutq faoliyaning nuqsoniga sababchi bo'ladi. Nutqning u yoki bu darajada nuqsoniga miyaning turli joylardagi jarohatlari ham ta'sir qiladi.

Nutq egallashda uchta asosiy muloqot vositasidan foydalaniladi. Birinchi bosqichida bola atrofdagi kattalar nutqini tushunmaydi. Ikkinchi bosqichda nutqning kelib chiqishi davrida bola kattalarni tushunadi va o'zini birinchi so'zlarini aytishga boshlaydi.

Nutqning ikkinchi funksiyasi xususiyati tafakkur vositalari bo'lib, bunday ba'zi hollarda nutqning ruhiy faoliyati faqatgina muloqot vositasi emas, balki umumlashtirishga ham xizmat qiladi. Predmetni umumlashtirish abstrakt qurollarni tashkil qiladi.

Nutqning kommunikativ va umumlashtiruvchi funksiyalari tor ma'nodagi birlikni tashkil qiladi. Nutq yordamida bola nafaqat yangi axborot oladi, balki uni o'zlashtiradi. Shu bilan birga nutq oliy psixik funksiyalarni, vositalarni muntazam tartibga solib turadi.





Normada tartibga solingan davrning oxirida vujudga keladi va bolaning maktabga borishida katta ahamiyat kasb etadi. Bola o'z nutqini kattalar nutqiga taqlid qilish asosida olib boradi.

“Bozorda” o'yini

Maqsad: bolalarning lug'at boyligi, bog'langan nutqi va muomala madaniyatini rivojlantirish.

Jixoz: mulyaj, rangli rasmlar, plastilindan yasalgan meva va sabzavotlar.

O'yinning borishi: logoped – bolalar bugun sizlar bilan bozorga borib sabzavot va mevalar xarid qilamiz. Biringiz sotuvchi qolganlar esa xaridorlar bo'ladi. Xaridor o'ziga kerakli meva yoki sabzavotni so'raydi, sotuvchi esa uni maqtab rangi, mazasi, qayerda o'sishi haqida izoh berishi kerak. Sotuvchining nutqi aniq sotayotgan narsasig'la izoh berishi kerak. Logoped esa uning nutqini kuzatib to'g'irlab borishi lozim. Xar bir bola sotuvchi va xaridor rolini bajaradilar. O'yin davomida bolalar sabzavot va mevalarni ushlab, paypaslab ko'radilar, bu esa ularning mayda qo'l motorikalarini rivojlantirishga yordam beradi.

“Sayrda” o'yini

Maqsad: lug'at boyligini rivojlantirish, jummalarni to'g'ri gapirish, motorikani rivojlantirish.

Jixoz: predmetli va syujetli rasmlar, tabiat aks ettirilgan mulyajlar.

O'yinning borishi: logoped – bolalar bugun siz bilan dalaga sayrga chiqamiz. Dalada nimalar pishgan bo'lsa terib kelimiz. Bolalar qo'llariga savatchalarni oladilar. Qaranglar dalada nimalar pishibdi? Kim nima uzadi. Bolalar savatlariga pomidor, bodring, sabzi, baklajon, karom soladilar. Logoped bolaning olgan narsasiga qarab unga savol beradi. Bu sabzavot nimaga ishlatiladi?, uning rangi, mazasi, shakli qanday. Bu sabzavotlarning odam organizmi uchun qanday foydasi botligi bolalarga tushuntirilib, savol-javob o'tkaziladi.

Maktabgacha yoshdagi alalik bolalar lug'atining o'ziga xosligini o'rganish, o'rganish natijalarini taxlil etish esa korreksion pedagogik ishlar asosini ishlab chiqish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi alalik bolalar bilan olib boriladigan logopedik, pedagogik korreksion ish tizimi, bolalar lug'at boyligini rivojlantirishga oid berilgan logopedik o'yinlarni ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ish jarayonida qo'llash mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri». T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993.





2. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud ahloq”. – T.: O‘qituvchi, 1992.
3. Ayupova M.Y. Korreksion ishlar metodikasi ma’ruza matni. T.: 2001
4. Ayupova M.Y. Logopediya. - T.: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
5. Axmedova Z., Ayupova M., Xamidova M. Logopedik o‘yin. T.: 2013.

